

**2025-2026-O'QUV YILIDA
UMUMTA'LIM MAKTABLARINING
9-SINF
O'QUVCHILARI UCHUN
O'ZBEKISTON TARIXI
FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSIYASINI
O'TKAZISH BO'YICHA
METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR**

2025-2026-O‘QUV YILIDA UMUMTA’LIM MAKTABLARINING 9- SINFLAR O‘QUVCHILARI UCHUN O‘ZBEKISTON TARIXI FANIDAN YAKUNIY NAZORATIDA FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Ushbu spetsifikatsiya umumta’lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilarini O‘zbekiston tarixi fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholashda foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonini va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – 9-sinf o‘quvchilarining O‘zbekiston tarixi fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini amaldagi dasturlarda belgilangan o‘quv maqsadlari asosida kompleks baholash. Mazkur baholash natijalari asosida 9-sinflar uchun yakuniy davlat attestatsiyasida qabul qilinadigan qarorlar asoslangan (valid) bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashda validlik, ishonchlik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2008-yil 4-martdagi 56-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risidagi nizom
2. O‘zbekiston tarixi fanidan 6-9-sinflar uchun amaldagi o‘quv dasturi
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2026-yil 16-martdagi “2025-2026-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 102-son buyrug‘i.

III. Baholash qamrovi va ajratilgan vaqt

O‘quvchilar uchun O‘zbekiston tarixi fani bilish darajasini aniqlash bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida jami 5 topshiriq taqdim etiladi. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari uchun **180 daqiq**a vaqt berilgan. Topshiriqlarning mazmun sohasi, baholanadigan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvallarda aks etgan:

Mazmun soha	Konstruktlar	Topshiriqlar soni
		5

Qadimgi dunyo tarixi	Qadimgi tosh davri, ularga oid manzilgohlarni tavsiflash, mil. avv. VII asrda O'rta Osiyoda vujudga kelgan ilk davlatlarning tasnifini izohlash, Zardushtiylik dini bilan bog'liq ma'lumotlarni aniqlash, Ahamoniylar va Makedoniyalik Aleksandrning O'rta Osiyoda hukmronligining o'rnatilishi, Spitamen jasorati, O'rta Osiyoda antik davlatlarning vujudga kelishini tahlil qilish, Buyuk Ipak yo'lining shakllanishini tavsiflab berish.	1
O'zbekistonning IV – XIII asrlar tarixi	Birinchi renesans vakillarining hayoti va ijod yo'llarini bilish va izohlash, hukmdorlar, davlat arboblarning ichki va tashqi siyosati, amalga oshirgan islohotlarining ahamiyatini tavsiflash, xulosa chiqarish, tarixiy shaxslarning faoliyati, davlat boshqaruvi va jamiyatdagi o'ziga xos o'rnini izchil va aniq ifodalash.	1
O'zbekiston tarixining XIII – XV asrlar davri	Ushbu davrda hukm surgan Xorazmshohlar davlati, Chig'atoy ulusi, Temuriylar saltanati bilan bog'liq ma'lumotlarni aniqlash va moslashtirish, ushbu davrning madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarida ro'y bergan ma'lumotlarni taqqoslash hamda izohlash, hukmdorlarning amalga oshirgan islohotlarining mohiyatini farqlash, tavsiflash.	1
O'zbekiston tarixining XVI – XIX asrlar davri	Buxoro va Xiva xonligida ro'y bergan voqealarni farqlash, Shayboniy hukmdorlarining ichki va tashqi siyosatiga doir ma'lumotlarni ajrata olish, Mang'itlarning hokimiyat tepasiga kelishi, Qoraqalpoqlarning kelib chiqishi, ularning Rossiya bilan aloqalari haqida ma'lumotlarni tavsiflash, Qo'qon xonligida amalga oshirilgan islohotlar, xonlikning tashqi siyosatiga doir ma'lumotlar izohlash	1
O'zbekiston tarixining XVI – XIX asrlar davri (Og'zaki)	XVI – XIX asrlarda ro'y bergan siyosiy jarayonlarning sabab va oqibatini tushuntirish, muqobil yechimlar taklif qilish, ma'lumotlarni xarita bilan izohlay olish, voqea-jarayonlarni yil va sanalar bilan ifodalash, hukmdorlar tomonidan amalga oshirilgan islohotlarning samarasi haqida fikr yuritish, O'rta Osiyo davlatlarining Rossiya bilan aloqalari, Rossiyaning Markaziy Osiyoni o'ziga qaram qilish yo'lidagi xatti-harakatlari haqida fikr bayon qilish, ma'lumotlarni aytib berishda xaritadan foydalanish.	1
Jami		5

IV. Kognitiv ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti

Kognitiv daraja	Izohi	Testlar soni (ta)
-----------------	-------	-------------------

Bilish (B)	Bilish darajasidagi, ya'ni reproduktiv topshiriqlar, o'quvchidan o'quv materialini qayta ishlamasdan xotirada saqlash va tanish vaziyatlarda qo'llashni talab qiladi. Bu turdagi topshiriqlar quyidagilarni baholaydi: qonuniyatlar, xossalar, tushunchalar, atamalarning mohiyati va ularni yodda saqlash.	2
Qo'llash (Q)	Qo'llash darajasidagi, ya'ni produktiv topshiriqlar, o'quvchidan o'rganilgan qonun va qonuniyatlarni berilgan vaziyatga mos ravishda tanlash, tahlil qilish, taqqoslash, qiyoslash, bir nechta qonun va qonuniyatlarni bir vaqtda qo'llash va umumlashtirish, shuningdek xulosa chiqarishni talab qiladi.	2
Mulohaza qilish (M)	Mulohaza darajasidagi, ya'ni intellektual topshiriqlar, o'quvchidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llash, tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, qonun va qonuniyatlarni ishlatib umumlashtirish va xulosa chiqarish talab qilinadi.	1

V. Topshiriq turlari bo'yicha taqsimoti

TOPSHIRIQ TURI	IZOHI	TOPSHIRIQ SONI
Qisqa javobli topshiriq (O1)	savolga qisqa jumla bilan javob berishni talab qiladigan yozma topshiriqlar	2 ta
Moslashtirishuvchi (O2)	savol mazmuniga mos javoblarni moslashtirishni talab qiladigan yozma topshiriqlar	2 ta
Og'zaki topshiriq – A.	o'quvchining tarix fanidan bilimi, tushunishi va fikrni mantiqan bayon qila olish ko'nikmasini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar	1 ta

VI. Baholash mezoni va ballni bahoga aylantirish tartibi

O'quvchilarning yozma ishlari yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarida maksimum 100 ball bilan baholanadi. Topshiriqlar uchun belgilangan ballar ularning murakkablik darajasini, bajarishda talab etiladigan bilim, ko'nikma va mantiqiy fikrlash hajmini hisobga olgan holda belgilangan. Topshiriqlar mazmuni va qiyinlik darajasi asosida turli xil ball bilan baholanadi. Har bir topshiriqning baholash mezoni baholash formatida berilgan. Quyida ballni bahoga konvertatsiya qilish jadvali keltirilgan:

Ballni bahoga aylantirish jadvali

Ball (%)	Baho	Izohi
-----------------	-------------	--------------

0 – 29	“2”	“qoniqarsiz”
30 – 65	“3”	“qoniqarli”
66 – 85	“4”	“yaxshi”
86 – 100	“5”	“a’lo”

VII. Baholash shakli

O‘quvchining bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholash bosqichi, baholanadigan mazmun soha, topshiriq turi, kognitiv jarayon va baholash mezonlari quyidagi jadvalda berilgan:

Topshiriq tartib raqami	Mazmun sohasi	Topshiriq turi	Kognitiv darajasi	Baholash mezonlari
1.	Qadimgi dunyo tarixi	O1	B	18 ball
2.	O‘zbekistonning IV – XIII asrlar tarixi	O1	B	18 ball
3.	O‘zbekiston tarixining XIII – XV asrlar davri	O2	Q	21 ball
4.	O‘zbekiston tarixining XVI – XIX asrlar davri	O2	Q	21 ball
5.	O‘zbekiston tarixining XVI – XIX asrlar davri	Y	M	22 ball
Jami		100 ball		

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, dalolatnoma tuzib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. Qadimgi dunyo tarixi 6-sinf. A.S. Sagdullayev, V.A. Kostetskiy, – Toshkent: “Yangiyo‘l poligraf servis”, 2022.
2. O‘zbekiston tarixi 7-sinf A.Zamonov, N. Ismatova va b. Toshkent: “Sharq”, 2022.
3. O‘zbekiston tarixi 8-sinf. A.Zamonov, N. Ismatova va b. Toshkent: Respublika Ta’lim Markazi, 2023.

4. O‘zbekiston tarixi 9-sinf. N. Ismatova, U. Jo‘rayev Toshkent: Respublika Ta‘lim Markazi, 2024.

1-savollar bazasi

1.

1. Boysun tog‘idan topilgan o‘rta paleolit davriga oid yodgorlik nomi yozing;
2. Yodgorlikka xos bo‘lgan asosiy topilmani izohlang;
3. Yodgorlikning o‘ziga xos jihatini yozing. (Bilish – 18 ball)

Javob:
Ball:

2.

1. Miloddan avvalgi VII asrda tashkil topgan Qadimgi Baqtriya davlati poytaxti nomi;
2. Baqtriya davlatining siyosiy va madaniy ta‘sirida bo‘lgan hududlar;
3. Baqtriya–Ossuriya urushi tafsilotlari va natijasini yozing. (Bilish – 18 ball)

Javob:
Ball:

3.

1. Qadimgi Baqtriya davlati bilan bir paytda mavjud bo‘lgan Qadimgi Xorazm davlati markazi nomi;
2. Ushbu qal‘ada joylashgan g‘alla omborxonasining vazifasi;
3. Qadimgi Xorazm aholisining xo‘jaligi haqida ma‘lumot bering. (Bilish – 18 ball)

Javob:

Ball:

4.

1. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi nomi;
2. Zardushtiylik dinida hayotning tub ma'nosi nimalardan iborat bo'lganligi;
3. Ushbu ta'limotga ko'ra, vafot etgan inson jasadi maxsus tepalikda qoldirilgan va keyinchalik ossuariylarga solinib, ko'milgan. Buning sababini yozing. (Bilish – 18 ball)

Javob:
Ball:

5.

1. O'rta Osiyo hududini bosib olishga harakat qilgan ilk fors hukmdori nomi;
2. Ushbu hukmdorga qarshi kurash olib borgan massagetlar malikasi nomi;
3. Ahamoniylar shohi va massagetlar malikasi o'rtasida sodir bo'lgan jang tafsiloti va uning natijasini yozing. (Bilish – 18 ball)

Javob:
Ball:

6.

1. Doro I ga qarshi kurash olib borgan sak qabilasidan chiqqan cho'pon yigit nomi;
2. Ushbu qahramonning Doro I qo'shinlarini cho'lga boshlab borish sababi;
3. Saklar qahramonining Doro I ga qarshi kurashi natijasi va ahamiyatini yozing. (Bilish – 18 ball)

Javob:
Ball:

7.

1. Makedoniyalik Aleksandrga qarshi kurash olib borgan sug‘dlar qahramoni nomi;
2. Makedoniyalik Aleksandr tomonidan yuborilgan uch mingga yaqin jangchidan iborat qo‘shinning qirib tashlanishi sababi;
3. Sug‘diyonda Makedoniyalik Aleksandrga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olon natijasini yozing. (Bilish – 18 ball)

Javob:
Ball:

8.

1. Miloddan avvalgi 329-yilda Maroqandani egallagan hukmdor nomi;
2. Ushbu humdorning Oks ortida yashovchi elatlarni bo‘ysundirishdan ko‘zlagan maqsadi;
3. Bosqinchi hukmdorning mahalliy zodagonlar bilan munosabat o‘rnatishda qo‘llagan uslubini yozing. (Bilish – 18 ball)

Javob:
Ball:

9.

1. Yunon-Baqtriya davlati tarixini boshlab bergan hukmdor nomi;
2. Parfiya davlatida Mitridat Ining hokimiyatga kelishi Yunon-Baqtriya davlatiga qanday ta‘sir ko‘rsatdi;
3. Yunon-Baqtriya davlati kuchsizlanishining sababini yozing. (Bilish – 18 ball)

Javob:
Ball:

10.

1. Buyuk ipak yo‘li orqali Farg‘onadan Xitoyga olib borilgan mahsulot nomi;

2. Xitoy elchisi Chjan Szyanning Farg‘ona vodiysiga kelishi sababi;
3. Buyuk ipak yo‘lining ahamiyatini yozing. (Bilish – 18 ball)

Javob:
Ball:

2-savollar bazasi

1. Sharqda «Shayx ar-raisi», G‘arbda Avitsenna nomi bilan mashhur bo‘lgan. Uning tibbiyotga doir asarlarida kasalliklarning kelib chiqish sabablari va manbalari, tashxis, muolaja usullari kabi tabobatning ko‘pgina g‘oyat muhim masalalari yoritilgan. Jahon fani tarixida qomusiy olim sifatida tan olingan. Uning ilmiy merosini o‘rganish ishlari XIII asrga kelib jadal tus olishi natijasida maxsus ilmiy yo‘nalish vujudga kelgan. Ushbu alloma va uning eng mashhur asari nomini yozing. (Bilish -18 ball)

Javob:
Ball:

2. Bu inson yerning dumaloq shaklda ekanligini asoslab berdi. U 1029 ta yulduzning koordinatalari va yulduz kattaliklari qayd etilgan yulduzlar jadvalini hamda dunyoning geografik xaritasini tuzadi. XIX asr nemis sharqshunosi Zaxau uni “arab adabiyoti okeanida yagona qoya” sifatida ta’riflagan. G‘aznaviylar hukmdori Sulton Mahmud o‘zining Hindistonga qilgan bir nechta yurishlarida olimni munajjim sifatida yonida olib yurgan. Ushbu alloma va uning Hindistonga safari chog‘ida yozilgan asari nomini yozing. (Bilish -18 ball)

Javob:
Ball:

3. Olim o‘z zamonasining barcha ilmlarini mukammal egallagani hamda bu ilmlar rivojiga katta hissa qo‘shgani uchun Sharq mamlakatlarida «Almuallim as-Soniy» –

«Ikkinchi muallim» (Aristoteldan keyin), «Sharq Arastusi» degan unvonlarga sazovor bo'lgan. Uning asarlarini 2 guruhga ajratish mumkin: 1) yunon faylasuflari, tabiatshunoslarining ilmiy merosini izohlash, targ'ib qilish va o'rganishga bag'ishlangan asarlar; 2) fanning turli sohalariga oid mavzulardagi asarlar. U qadimgi yunon mutafakkirlari Platon, Aristotel, Yevklid, Ptolemey, Porfiriylarning asarlariga sharhlar yozgan. Ushbu alloma va uning jamiyatning kelib chiqishi, maqsadi, vazifalari izchil yoritilgan asari nomini yozing. (Bilish -18 ball)

Javob:
Ball:

4. Alloma islom shariati – fiqh sohasidagi peshqadam olimlardan hisoblanadi. O'z davrining mashhur allomalari, faqih va mujtahid darajasidagi olimlardan dars olib, o'zining e'tiqodi, taqvosi va yuksak iste'dodi tufayli hanafiy mazhabi bo'yicha buyuk faqih va mujtahid darajasiga ko'tariladi. «Shayx ul-islom» degan ulug' martabaga sazovor bo'ladi. Uning asaridan hozirgacha Sharq va G'arbning o'quv yurtlarida islom shariatini o'rganishda asosiy manbalardan biri sifatida foydalaniladi. 2000-yilning noyabrida tavalludining 910 yilligi keng nishonlangan. Ushbu alloma va uning islom huquqshunosligining barcha sohalarini o'zida ifoda etgan mashhur asari nomini yozing. (Bilish -18 ball)

Javob:
Ball:

5. Tilshunos, shoir, faqih hisoblanib, «Jorulloh» – «Allohning qo'shnisi», «Arab va g'ayri arablar ustozisi», «Xorazm faxri» nomlari bilan ulug'langan. Arab tili, adabiyot, geografiya, tafsir, hadis va fiqhga oid ko'plab asarlar yaratgan. Uning fiqhga oid «Turli masalalarning muhimi», «Vorilik huquqi ilmi bo'yicha mashq», din asoslari haqidagi «Usuldagi tartibotlar», hadislarga bag'ishlangan «G'arib hadislar haqida ajoyib asar»lari saqlanib qolgan. Buyuk bobomiz Alisher Navoiy «Sab' ai sayyor» dostonining ustozisi Abdurahmon Jomiy ta'rifiga bag'ishlangan bobida allomani eslab o'tgan. Ushbu alloma nomi va u tomonidan yozilgan Qur'on tafsiriga bag'ishlangan asarning qisqacha nomini yozing. (Bilish -18 ball)

Javob:

Ball:

6. Muhammad (s.a.v.)ning olti yuz mingga yaqin hadislarini yodida saqlagan. Alloma «Hadis ilmining sultoni» degan sharaflı unvonga sazovor bo‘lgan. Hadis ilmi olimlaridan biri Is‘hoq Rohuvaihning huzurida bo‘lib, uning gaplari allomaning qalbiga o‘rnashib qoladi va u hadislarini jamlashni boshlaydi. 600 000 ta hadisdan kitobiga faqat sahih hadislarini jamlagan. Hadislarning roviysi (yetkazuvchi, rivoyat qiluvchi, aytuvchi) haqidagi ma‘lumotlarni ham berishi ularning ishonchligini ta‘minlash uchun asos bo‘lgan. Ushbu alloma va uning eng mashhur asari nomini yozing. (Bilish -18 ball)

Javob:
Ball:

7. Asli Sirdaryo bo‘ylarida yashagan barsxon turkiy qabilasiga mansub bo‘lib, yoshligida asir olinib, so‘ngra qul qilib sotilgan. Somoniylar turkiy qo‘shini boshlig‘i Alptegin uni o‘z qaramog‘iga olgan. Somoniylar davlatining turkiy askarlar qo‘shinida xizmat qilib, G‘azna va uning atroflarini Somoniylar noibi sifatida boshqaradi. 977-997-yillarda G‘aznaviylar davlatida hukmronlik qilib, uning davrida g‘aznaviylar davlati somoniylar tomonidan e‘tirof etilgan. Ushbu hukmdor ismi va uning somoniylarga bergan yordami evaziga olgan sharaflı nomini yozing. (Bilish -18 ball)

Javob:
Ball:

8. Bu hukmdor Xurosonni butkul Somoniylar davlatidan ajratib oldi. Uning davrida G‘aznaviylar davlati Sharqning eng qudratli davlatlaridan biriga aylangan. Xurosondan qoraxoniylarni haydab chiqarib, 1017-yilda Xorazmga yurish qiladi. Hozorasp yonidagi jangda Xorazm qo‘shinini mag‘lubiyatga uchratadi. Xorazmdan ko‘plab boyliklar bilan birga, fan va madaniyat arboblarni ham G‘aznaga ko‘chirib keltirgan. Ular orasida buyuk olim Abu Rayhon Beruniy ham bor edi. Ushbu hukmdor nomi va unga Bag‘dod xalifasi tomonidan berilgan faxriy unvonni yozing. (Bilish -18 ball)

Javob:
Ball:

9. Hirot yaqinidagi Bo‘shang shahri hokimi hisoblangan. U xalifa Ma‘munning taxtga chiqishiga yordam bergan. Buning evaziga 821-yilda Xuroson va Movarounnahr noibi etib tayinlanadi. Shu tariqa, keyinchalik yangi davlatga asos solgan. 811-yili Ray yaqinida xalifa Aminning Ali Moxon ismli sarkardasini mag‘lub etgan. Ushbu sarkarda nomi va Ray yaqinidagi jangda ko‘rsatgan jasorati tufayli olgan faxriy taxallusini yozing. (Bilish -18 ball)

Javob:
Ball:

10. Bu inson qang‘li urug‘idan bo‘lgan xon Jonkishning qizi edi. Sulton Muhammad Xorazmshoh validasi bo‘lgan bu ayolning xos poytaxti Gurganch (Urganch) hisoblangan. Tarixiy manbalarda ta‘kidlanishicha, Sulton Muhammad hukmronligi davrida u saltanat ishlarida yetakchi mavqeni egallagan, uning farmoyishlari va maslahatlari o‘g‘li tomonidan so‘zsiz bajarilgan. Bu inson rahnamoligida saroy ahli, zodagonlar bir necha guruhga bo‘linib, o‘zaro adovat qilganlar. Ushbu shaxs nomi va uning laqabini yozing. (Bilish -18 ball)

Javob:
Ball:

3-savollar bazasi

1. Quyidagi davlatlarni ularning siyosiy hayotiga xos ma‘lumotlar asosida moslashtiring.(Qo‘llash – 21 ball)

	a) Saltanat ulkan imperiyaga aylandi. Movarounnahrda qoraxoniylar boshqaruviga chek qo‘yilib, Eronning
--	--

1. Xorazmshohlar davlati	Kirmon viloyati, Mikron, so‘ng Balujiston egallandi.
2. Chig‘atoy ulusi	b) Uning haqiqiy asoschisi Olg‘uxon bo‘ldi. Olg‘uxon Xorazmning bir qismi, Turkiston va Afg‘onistonni qo‘lga kiritib, davlatning ilk tamal toshini qo‘ydi
3. Amir Temur davlati	c) mo‘g‘ullarga qarshi 11 yil davomida Xuroson, Hindiston, Eron, Iroq va Kavkaz hududlarida tinimsiz kurash olib borildi, Bag‘dod xalifasi va Ko‘niya sultoni Alovuddin Kaykubod kabi shaxslarga qarshi kurashishga ham to‘g‘ri keldi.
	d) Saltanatda davlat boshlig‘i sifatida chingiziylardan Suyurg‘atmishxon va uning o‘g‘li Sulton Mahmudxon xonlik unvoniga tasdiqlangan bo‘lsa-da, amalda ular “qo‘g‘irchoq” xonlar edi

1	2	3
Ball:		

2. Quyidagi janglarni ularning natijalari asosida moslashtiring. (Qo‘llash – 21 ball)

1. Irg‘iz jangi	a) Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ullarning Taynol no‘yon boshliq qo‘shinini yengdi
2. Basra yaqinidagi jang	b) Bag‘dod xalifasi Nosirning Jaloliddin Manguberdiga qarshi yuborgan 20 minglik qo‘shini tor-mor keltirildi
3. Isfahon yaqinidagi jang	c) Ko‘niya, Jazira, Damashq va Misrning birlashgan qo‘shini Jaloliddin Manguberdi kuchlarini mag‘lub etdi
	d) Xorazmshoh dushmanning siquviga dosh berolmadi, uni Jaloliddinning xos lashkarlari dushmanga bergan qaqshatqich zarba qutqarib qoldi

1	2	3
Ball:		

3. Shaharlarni ularning mo‘g‘ullarga qarshi mudofaasiga oid ma‘lumotlar asosida moslashtiring. (Qo‘llash – 21 ball)

1. O‘tror mudofaasi	a) shaharliklar aholini saqlab qolish niyatida o‘zaro maslahatlashib, Badriddin boshchiligida bir guruh oqsoqollarni Chingizxon huzuriga yubordi
2. Buxoro mudofaasi	b) Sulton Muhammad 40 ming g‘ur jangchisini o‘z tog‘asi Tog‘ayxon boshchiligida mudofaa uchun

	mas'ul qilib qoldirdi
3. Samarqand mudofaasi	c) mudofaachilar shaharni besh oy davomida o'z qo'llarida ushlab turdilar. G'oyirxon o'zini aybdor his qilib, so'nggi nafasigacha dushmanga qarshi kurashdi
	d) Shahar Sirdaryoning ikkiga ajralgan joyida qurilgan bo'lib, atrofidagi tik jarliklar va daryo tabiiy mudofaa vazifasini bajargan

1	2	3
Ball:		

4. Quyidagi shaxslarni ularning mo'g'ullarga qarshi ko'rsatgan jasorati haqidagi ma'lumotlar asosida moslashtiring. (Qo'llash – 21 ball)

1. Temur Malik jasorati	a) 12 ta qayiq yasattirdi va qayiqlar usti namat bilan qoplanib, sirka shimdirilgan loy bilan suvab chiqildi. Ushbu qayiqlar yordamida mo'g'ul qo'shinlariga qarshi kurash olib bordi
2. Najmiddin Kubro jasorati	b) Valiyon qal'asini qamal qilayotgan mo'g'ul qo'shinlariga hujum qilib, ularni tor-mor etgan. Shu orqali dushman ustidan dastlabki yirik g'alabaga erishgan
3. Ko'kxon jasorati	c) 76 yoshida mo'g'ullarga qarshi jang qildi. O'lim oldidan mo'g'ul navkariga tashlanib, uni yer tishlatdi va o'zi ham halok bo'ldi
	d) Buxoro mudofaasida qatnashgan. Bir hamla bilan bir necha dushmanni birdaniga o'ldirgan va hujum qilganlarni orqaga chekinishga majbur etgan

1	2	3
Ball:		

5. Quyidagi tarixiy manbalarni ularning mazmuniga oid ma'lumotlar asosida moslashtiring. (Qo'llash – 21 ball)

1. Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarayi turk" asari	a) Chingizxonning vasiyatiga ko'ra, mo'g'ullar yilda bir marta "to'y" deb ataladigan ziyofatga yig'ilishi bayon etilgan
2. Alouddin Juvayniyning "Tarixi jahongusho" asari	b) Jaloliddin Manguberdi "bug'doyrang, o'rta bo'yli, turkiy qiyofali va turkiyda

	gapiradigan odam” bo‘lganligi aytib o‘tilgan
3. Shihobiddin Nasaviyning “Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangburni” asari	c) Buxoro mudofaasi chog‘ida Ko‘kxon ismli bahodirning jasorati va uning bir hamla bir necha dushmani birdaniga o‘ldirib, ularni chekinishga majbur etganligi bayon etilgan
	d) O‘ror hokimining bir tanishi uni G‘oyirxon demay, Inolchiq deb aytilishi va G‘oyirxonning bundan g‘azablanishi bayon etilgan

6. Elchilar va ularga oid o‘zar moslashtiring .

1	2	3
Ball:		

ma’lumotlarni
(Qo‘llash – 21 ball)

1. Bahouddin Roziy	a) Amir Temur tomonidan Xorazmni tinchlik yo‘li bilan davlat tarkibiga kiritish maqsadida <i>Gurganjga</i> yuborildi
2. Alafa tavochi	b) Chingizxon tomonidan Sulton Muhammad Xorazmshoh huzuriga O‘ror hokimi <i>Inolchiqni</i> mo‘g‘ullar qo‘liga topshirish talabi bilan borgan
3. Hoji Sayfiddin	c) <i>Elchilik</i> sabablaridan biri mo‘g‘ullarning <i>Tamg‘och, To‘kir, Tibet mamlakatlari, Chin iqlimi, Uzoq Sharqdagi</i> istilosi haqida aniq ma’lumotlar yig‘ish bo‘lgan
	d) Amir Temur tomonidan <i>Hiro</i> t hukmdori Malik G‘iyosiddin Pir Ali huzuriga elchi qilib yuborilgan

1	2	3
Ball:		

7. Chig‘atoy ulusi tarixiga oid atamalar va ularning ma’nolarini o‘zaro moslashtiring.
(Qo‘llash – 21 ball)

1. Shulen	a) choparlar, yo‘lovchilar ot almashtiradigan joy
2. Yom	b) ko‘chmanchilar mahsulot tarzida to‘laydigan soliq
3. Baxshi	c) hukmdorlarning maxsus farmonlari va zafarnomalarni yozish bilan shug‘ullangan

	xattotlar
	d) hukmdorning qo‘shin to‘plashga qaratilgan maxsus buyrug‘i

1	2	3
Ball:		

8. Amir Temur davlat boshqaruviga oid mansablar va ularning vazifasini o‘zaro moslashtiring. (Qo‘llash – 21 ball)

1. Muftiy	a) barcha sudlarda qozilarga fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha xulosa bergan
2. Arzbeji	b) Butun imperiya bo‘yicha odil sudlov holatiga javob bergan
3. Arkbegi	c) Turli rasmiy marosimlarni uyushtirgan va o‘tkazgan
	d) mamlakat obodonchiligini, muhim ishlardan qaysi biri bitganini nazorat qilgan

1	2	3
Ball:		

9. Pul islohotlari va ularga oid ma’lumotlarni o‘zaro moslashtiring. (Qo‘llash – 21 ball)

1. Mas’udbek pul islohoti	a) pullar xalq o‘rtasida “fulusi adliya”, ya’ni “adolatli chaqa” nomi bilan shuhrat topgan. Yangi fuluslar ichki chakana savdo uchun keng yo‘l ochdi
2. Kebekxon pul islohoti	b) Movarounnahrning 16 ta shahar va viloyatida bir xil vazn va yuqori qiymatli sof kumush tangalar zarb etilib, ularni muomalaga chiqardi
3. Mirzo Ulug‘bek pul islohoti	c) ilgari chiqarilgan bitta kumush tanga o‘rniga bir xil qiymatdagi kichik dirhamlar va yirik dinorlar zarb qilingan
	d) mamlakat tarixida ilk bor qog‘oz pullar muomalaga chiqarilib, mayda qiymat uchun mis tangalar faoliyati ham saqlab qolindi

1	2	3
Ball:		

10. Amir Temur bog‘lari va ularga oid ma’lumotlarni o‘zaro moslashtiring. (Qo‘llash – 21 ball)

1. Bog‘i Behisht	a) Samarqanddan 13 km janubda bo‘lgan. Amir Temur bu bog‘da zafarli yurishlardan qaytgach, dam olgan, xorijiy elchilarni qabul qilgan
2. Bog‘i Maydon	b) Cho‘ponota tepaligi etagida, Samarqandning shimolida joylashgan. Mirzo Ulug‘bek tomonidan yanada obod qilingan
3. Bog‘i Davlatobod	c) Sohibqiron Samarqandning g‘arbida suyukli xotini Xayrunnisoga atab qurdirgan. Ayrim yozma manbalarda “Bog‘i jannat” nomi bilan ataladi
	d) Samarqanddan 5 km sharqda, Panjikent yo‘lining o‘ng tomonida joylashgan. Amir Temurning xotinlaridan biri Tukul xonim sharafiga qurilgan

1	2	3
Ball:		

4-savollar bazasi

1. Raqamlar ostida yashirilgan to‘g‘ri javobni yozing. (Qo‘llash – 21 ball)

Yil	Shaxs	Voqea
1501-yil	1. _____	Zahiriddin Muhammad Bobur bilan bo‘lgan jangda g‘olib chiqdi
2. _____	Umar Shayx	Xorazmda safaviylarga qarshi boshlangan xalq harakatiga rahbarlik qildi
1709-yil	Shohruxbiy	3. _____ _____ _____

Javob	
1	
2	
3	
Ball	

2. Raqamlar ostida yashirilgan to‘g‘ri javobni yozing. (Qo‘llash – 21 ball)

Yil	Shaxs	Voqea
1510-yil	Shayboniyxon	1. _____ _____ _____
1733-yil	2.	Samarqand, Jizzax va Kattaqo‘rg‘onni, ya’ni ashtarxoniylar izmida bo‘lgan yerlarni o‘z boshqaruviga olishga erishdi
3.	Muhammad Amin	hokimiyatni qo‘lga olishi natijasida Xorazmda qo‘ng‘irotlar sulolasi hukmronligi boshlandi

Javob	
1	
2	
3	
Ball	

3. Raqamlar ostida yashirilgan to‘g‘ri javobni yozing. (Qo‘llash – 21 ball)

Yil	Shaxs	Voqea
1533-yil	1. _____	Hokimiyatni egalladi va o‘z hukmronligi davrida ichki kelishmovchiliklarga barham berdi
2.	Arab Muhammadxon	o‘g‘illari Habash va Elbars sultonlar taxt talashib unga qarshi urush boshladi
1758-yil	Erdonaxon	3. _____ _____ _____

Javob	
1	
2	
3	
Ball	

4. Raqamlar ostida yashirilgan to‘g‘ri javobni yozing. (Qo‘llash – 21 ball)

Yil	Shaxs	Voqea
1.	Ubaydullaxon	Davlat poytaxtini Samarqanddan Buxoro shahriga ko'chirishi natijasida shayboniylar davlati Buxoro xonligi deb ataladigan bo'ldi
1831-yil	2.	Qo'qon xonligida beklarbegi unvoni joriy qilindi
1912-yil	Yusufbek Bayoniy	3. _____ _____ _____

Javob	
1	
2	
3	
Ball	

5. Raqamlar ostida yashirilgan to'g'ri javobni yozing. (Qo'llash – 21 ball)

Yil	Shaxs	Voqea
1509-yil	Shayboniyxon	1. _____ _____ _____
1821-yil	2. _____	Umarxon amriga binoan, 63 shoirning she'rlarini o'z ichiga olgan "Majmuayi shoiron" to'plamini tuzdi
3.	Muhammad Aminxon	Saraxs yaqinidagi jangda halok bo'lganligi sababli Kaltaminor qurilishi to'xtatilgan

Javob	
1	
2	
3	
Ball	

6. Raqamlar ostida yashirilgan to'g'ri javobni yozing. (Qo'llash – 21 ball)

Yil	Shaxs	Voqea
1. _____	Muhammad Shayboniyxon	Urganchni egallab, Xorazmda temuriylar sulolasi boshqaruviga chek qo'ydi
1640-yil	Imomqulixon	2. _____ _____ _____
1831-yil	3.	Pekin bilan imzolangan kelishuvga ko'ra, Koshg'ardagi xalqaro savdo to'liq Qo'qon nazoratiga o'tdi

Javob	
1	
2	
3	
Ball	

7. Raqamlar ostida yashirilgan to'g'ri javobni yozing. (Qo'llash – 21 ball)

Yil	Shaxs	Voqea
1593-yil	1. _____	Butun Xorazmni bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi
1708-yil	Ubaydullaxon II	2. _____ _____ _____
3. _____	Musulmonqul	O'shdagi qo'zg'olonni bostirish uchun yuborildi

Javob	
1	
2	
3	
Ball	

8. Raqamlar ostida yashirilgan to'g'ri javobni yozing. (Qo'llash – 21 ball)

Yil	Shaxs	Voqea
1731-yil	M.Tevkelev	1. _____ _____ _____
2. _____	Muhammad Rahimbiy	Buxoroda hokimiyatni to'la egallashga muvaffaq bo'ldi
1819-yil	3.	uning farmoni bilan Yangiariq arig'i yana uzaytirilib, uzunligi 120 chaqirimga yetkazildi

Javob	
1	
2	
3	
Ball	

9. Raqamlar ostida yashirilgan to'g'ri javobni yozing. (Qo'llash – 21 ball)

Yil	Shaxs	Voqea
1428-yil	1.	Sibir g'arbidagi Tura shahrini bosib oldi va uni davlat poytaxtiga aylantirdi
2.	Anushaxon	Buxoro xoni Abdulazizga qarshi jangda qahramonlik ko'rsatib, jang taqdirini xivaliklar foydasiga hal qildi
1852-yil	Musulmonqul	3. _____ _____ _____

Javob	
1	
2	
3	
Ball	

10. Raqamlar ostida yashirilgan to'g'ri javobni yozing. (Qo'llash – 21 ball)

Yil	Shaxs	Voqea
1686-yil	1.	Subhonqulixon bilan bo‘lib o‘tgan jangda mag‘lubiyatga uchrab, chekinishga majbur bo‘ldi
1837-yil	Amir Nasrulla	2. _____ _____ _____
3.	Perovskiy	Oqmasjid bosib olindi va qal’a hokimi To‘raqul (Abdu Vali) halok bo‘ldi

Javob	
1	
2	
3	
Ball	

5-savollar bazasi

1. Temuriy shahzodalarning Shayboniyxonga qarshi kurashda birlasha olmaganliklarining sababi va oqibatlarini izohlang.

- Shahzodalarning birlasha olmaganligi sabablarini ayting;
- o‘zaro ittifoqqa birlasha olmaganligi oqibatlarini bayon eting;
- mavjud vaziyat yuzasidan muqobil yechimlaringizni so‘zlang;
- o‘z fikrlaringizni xarita yordamida izohlang;
- mavzuga xos yil va sanalardan misol keltiring. (Mulohaza – 22 ball)

Og‘zaki javob

Ball:

2. Mamlakatning yagona markazga birlashuvi davlatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga ijobiy ta’sir etishini Abdullaxon II misolida tushuntiring bering.

- Abdullaxon II hukmronligi davridagi siyosiy jarayonlar haqida ayting;
- Abdullaxon II ning davlat iqtisodiy taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini izohlang;

- mamlakat ijtimoiy hayotida markaziy hokimiyatning o‘rni haqida ma’lumot bering;
- o‘z fikrlaringizni xarita yordamida izohlang;
- mavzuga xos yil va sanalardan misol keltiring. (Mulohaza – 22 ball)

Og‘zaki javob

Ball:

3. Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Qo‘qon xonligi madaniyatining o‘xshash va farqli jihatlarini bayon eting.

- uchala davlat madaniyatining o‘xshash va farqli jihatlarini ayting;
- davlatlarning madaniy sohada ustunligi yoki ortda qolishi sabablarini sanang;
- madaniy taraqqiyot uchun muqobil yechimlaringizni so‘zlang;
- uchala davlat chegaralarini xarita yordamida izohlang;
- mavzuga xos yil va sanalardan misol keltiring. (Mulohaza – 22 ball)

Og‘zaki javob

Ball:

4. XIX asrning ikkinchi choragida Qo‘qon xonligida siyosiy va ijtimoiy inqirozlar yuzaga kelishi sabab va oqibatlarini izohlang.

- siyosiy va ijtimoiy inqirozlar sabablarini ayting;
- markaziy hokimiyat parokandaligi oqibatlarini bayon eting;
- mavjud vaziyat yuzasidan muqobil yechimlaringizni so‘zlang;
- o‘z fikrlaringizni xarita yordamida izohlang;
- mavzuga xos yil va sanalardan misol keltiring. (Mulohaza – 22 ball)

Og‘zaki javob

Ball:

5. Xiva xonligida davlat boshqaruvi sohasida amalga oshirilgan islohotlar mazmun mohiyatini izohlang.

- islohot o‘tkazilishi sabablarini ayting;
- islohot o‘tkazgan hukmdorlar va ularning islohotlari mazmun mohiyatini bayon eting;
- mavjud vaziyat yuzasidan muqobil yechimlaringizni so‘zlang;
- islohotchi hukmdorlar davridagi davlat chegaralarini xaritadan ko‘rsating;
- mavzuga xos yil va sanalardan misol keltiring. (Mulohaza – 22 ball)

Og‘zaki javob

Ball:

6. Rossiya imperiyasining Xiva xonligiga qarshi yuborgan harbiy ekspeditsiyalari sabablari va uning natijalarini izohlang.

- harbiy ekspeditsiyalar uyushtirilishi sabablarini ayting;
- A.Bekovich-Cherkasskiy va V.Perovski harbiy yurishlarining natijalarini bayon eting;
- mavjud vaziyat yuzasidan muqobil yechimlaringizni soʻzlang;
- oʻz fikrlaringizni xarita yordamida izohlang;
- mavzuga xos yil va sanalardan misol keltiring. (Mulohaza – 22 ball)

Ogʻzaki javob

Ball:

7. Ashtarxoniylar sulolasi davrida Buxoro xonligida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar yuzaga kelishi sabab va oqibatlarini izohlang.

- siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar sabablarini ayting;
- markaziy hokimiyat parokandaligi oqibatlarini bayon eting;
- mavjud vaziyat yuzasidan muqobil yechimlaringizni soʻzlang;
- oʻz fikrlaringizni xarita yordamida izohlang;
- mavzuga xos yil va sanalardan misol keltiring. (Mulohaza – 22 ball)

Ogʻzaki javob

Ball:

8. Eron shohi Nodirshohning Buxoro amirligi va Xiva xonligiga qarshi yurishini amalga oshirishga imkon bergan omillarni izohlang.

- Har ikki davlatning Eron qoʻshinlariga qarshi urushda magʻlub boʻlishi sabablarini ayting;
- ikkala davlatdagi siyosiy ahvolning urushda magʻlub boʻlishdagi tutgan oʻrni haqida bayon eting;
- mavjud vaziyat yuzasidan muqobil yechimlaringizni soʻzlang;
- oʻz fikrlaringizni xarita yordamida izohlang;
- mavzuga xos yil va sanalardan misol keltiring. (Mulohaza – 22 ball)

Ogʻzaki javob

Ball:

9. Buxoro xonligi va amirligi, Xiva xonligi hamda Qoʻqon xonligining jahon taraqqiyotidan uzilib qolishi sabablarini izohlang.

- mamlakatlar boshqaruvi va siyosiy nizolarning davlat taraqqiyotiga koʻrsatgan salbiy taʼsirini ayting;

- yagona ichki bozorning mavjud emasligi davlatlar taraqqiyotiga to‘sqinlik qilganligini izohlang;
- mavjud vaziyat yuzasidan muqobil yechimlaringizni so‘zlang;
- Buxoro xonligi va amirligi, Xiva xonligi hamda Qo‘qon xonligi chegaralarini xarita yordamida izohlang;
- mavzuga xos yil va sanalardan misol keltiring. (Mulohaza – 22 ball)

Og‘zaki javob

Ball:

10. Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Qo‘qon xonligining o‘zaro birlasha olmaganliklarining sababi va oqibatlarini izohlang.

- davlatlarning birlasha olmaganligi sabablarini ayting;
- o‘zaro ittifoqqa birlasha olmaganligi oqibatlarini bayon eting;
- mavjud vaziyat yuzasidan muqobil yechimlaringizni so‘zlang;
- o‘z fikrlaringizni xarita yordamida izohlang;
- mavzuga xos yil va sanalardan misol keltiring. (Mulohaza – 22 ball)

Og‘zaki javob

Ball:
